

Dosbayeva Nargiza Turg'unpo'latovna
NamDChTI professori
E-mail: nargizad2008@gmail.com

UO'K 81-11

TARJIMADA LAKUNALAR VUJUDGA KELISHINING LINGVOMADANIY O'ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya: Maqolada tillararo leksik lakunarlik holati tarjimaviy aspektda tadqiqqa tortildi. Tarjimada lakuna va lakunarlikni tadqiq qilishning nazariy asoslari umumlashtirilib, tarjimada vujudga keladigan lakunalarning lingvomadaniy o'ziga xosliklari yoritilgan va ularni tarjimada bartaraf qilish usullari tarjimashunoslik metodologiyasi asosida rivojlantirilgan.

Kalit so'zlar: lakunarlik, eliminatsiya, muqobilsiz leksika, lingvomadaniy, retsiyent, kontsept, sema, interiorizatsiya.

Досбаева Наргиза Тургунпулатовна
Профессор НамГИИЯ

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ ЛАКУН ПРИ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация: В статье рассматривается ситуация межъязыковых лексических лакун с точки зрения перевода. Обобщены теоретические основы изучения лакун и лакуарности в переводе, выделены лингвокультурологические особенности лакун, возникающих при переводе, а также разработаны методы их устранения при переводе на основе методологии переводоведения.

Ключевые слова: лакуарность, элиминация, безэквивалентная лексика, лингвокультурологический, реципиент, концепт, сема, интериоризация.

Dosbayeva Nargiza Turgunpolatovna
Professor of NamSIFL

LINGUOCULTURAL SPECIFICS OF FORMATION OF LACUNAS IN TRANSLATION

Annotation: The article examines the situation of interlingual lexical lacunae from the point of view of translation. The theoretical foundations of studying lacunae and lacunarity in translation are summarized, linguacultural features of lacunae arising during translation are highlighted, and methods for their elimination during translation are developed based on the methodology of translation studies.

Key words: lacunarity, elimination, non-equivalent vocabulary, linguacultural, recipient, concept, seme, internalization.

Kirish

Istalgan tilning lug‘at tarkibi shunday bir tizimda “ishlaydiki” undagi har bir so‘z va tushunchaning boshqa so‘z va tushunchalarga nisbatan o‘z qat‘iy belgilangan o‘rni bor. Real borliqning ma’lum halqalarini ajratib olish, ularni guruhlash, shuningdek, boshqa tilda berish tabiati dastlabki tilda tegishli atamalarning mavjudligiga bog‘liqdir. Bu borada bir tildan ikkinchi tilga tarjima jarayonida o‘ta tabiiy holatda juda qiziqarli muammo – leksik lakunarlik muammosi kelib chiqadi”. Tarjimashunoslikda lakunarlik holati va lakunalar kulturologik tadqiqotlardagiga qaraganda yetarlicha ishlanmagan bo‘lib qolmoqda. Tarjimashunoslarning aksariyati lakunalarni leksik birliklarning tillararo qiyosiy tahlili vaqtida namoyon bo‘ladigan hodisa sifatida ta’riflaydi. Bugungi kunda akunarlik va lakunalarning falsafiy va madaniy aspektlari yetarlicha o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, ushbu hodisaning tarjimaviy aspekti haligacha chuqur ishlanmagan holda qolib ketmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Lakunalarni aniqlash, ifodalash va eliminatsiya qilish masalalari madaniyatshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, falsafa, madaniyatlararo muloqot va lakunologiyada tadqiq qilinsa-da, tarjimashunoslikda ushbu masalalar e’tibordan chetda qolgandek. Lakunalarga maqom berish va sistematizatsiya muammolari bilan Yu.S.Stepanov, V.L.Muravev, V.G.Gak, V.I. Jelvis, Yu.A. Sorokin, I.A.Sternin, O.A.Ogursova, Z.D.Popova, I.Yu.Markovina, G.V.Bikova, L.A.Leonova singari qator olimlar shug‘ullanishgan. Lakuna va ekvivalentsiz leksika tadqiqi bilan shug‘ullangan ko‘plab tadqiqotchilar shunday to‘xtamga kelishganki, ushbu hodisalarga faqat ikki va undan ortiq bo‘lgan tillar va madaniyatlar chog‘ishtirilganda aniqlik kiritish mumkin. Faqatgina ikki til kategoriyalarini bir-biriga taqqoslagandagina ekvivalentlik haqida so‘z yuritish mumkin, bir tillilik sharoitida lakunarlik va lakunalar tushunchalarini tahlilga tortishdan ma’no chiqmaydi. Albatta, tilning ichki lakunarligi degan tushuncha ham bor, biroq biz tadqiqotimizda aynan tillararo lakunalar borasida baxs yuritayotganimiz sababli, ushbu masalaga alohida to‘htalib o‘tirishni lozim topmadik. V.L.Muravev,

I.Yu.Markovina va Yu.A.Sorokin, hamda T.Yu.Danilchenkolar ham lakunalar faqatgina tillararo va madaniyatlararo muloqot davomida yuzaga chiqishini ta'kidlab o'tishgan. Bundan tashqari, olimlar turli tillarning o'zaro ta'sir jarayoni mobaynida lakunalar kelib chiqishi muqarrarligini, matn makonining o'zini lakunarlik holatida bo'lishi haqida ko'p gapirib o'tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tillararo leksik lakunarlik holati tarjimaviy aspektida semantik va konseptual yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tarjimada lakuna va lakunarlikni tadqiq qilishning nazariy asoslari umumlashtirilib, tarjimada vujudga keladigan lakunalarning lingvomadaniy o'ziga xosliklari yoritilgan va ularni tarjimada bartaraf qilish usullari tarjimashunoslik metodologiyasi asosida rivojlantirilgan.

Tahlillar va natijalar

Tadqiqotchilar lakunalarni aniqlash va ta'riflash borasida turlicha yondashuvlar hamda usullarni taklif qilishadi. Bu masalada I.Yu.Markovinaning lakunalarni aniqlash va tahlil qilish yondashuviga murojaat qilib ko'radigan bo'lsak, olima lingvomadaniy qiyoslash uchun asosiy material sifatida matnni ko'rsatadi hamda asliyat va tarjima tilidagi materiallarni taqqoslash orqali lakunalarni aniqlash mumkinligini va tarjimaga madaniyatlararo muloqotning birinchi bosqichini amalga oshirish natijasi sifatida qarash kerakligini ta'kidlaydi. Madaniyatlararo muloqotning ikkinchi bosqichi deganda, I.Yu. Markovina tarjima matnining tarjima tili retsipyenti tomonidan qabul qilinishini nazarda tutadi [1]. Ikki til va madaniyat o'rtachisi sifatida tarjimon, muqarrar holatda lakunalarga to'qnash keladi. Tarjima matnida saqlanib qolgan va tarjimon tomonidan eliminatsiya qilingan lakunalarni aniqlash asliyat va tarjima matnining lingvokulturologik tahliliga kiradi. Shu tarzda matnda lakunalarni yuzaga chiqarishning ikki asosiy usuliga tayanamiz:

1) asliyat va tarjima matnlarining lingvomadaniy qiyosi orqali ular orasidagi tafovutlarni aniqlash va interpretatsiya qilish; 2) retsipyentning o'zga madaniyat mahsuli bo'lmish matn bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilish orqali leksik-semantik birliklarni yuzaga chiqarish, qaysiki retsipyent tomonidan osongina

o'zlashtirilayotgan matn fonida intuitiv ravishda tushunarsizlik g'alatilik kasb etadi.

Taniqli lakunolog olimlardan biri Yu.A.Sorokin tillararo lakunalarni aniqlash metodini u yoki bu xududiy madaniyatga tegishli bo'lgan verbal xatti-xarakatdagi invariant va variant atamaları orqali interpretatsiya qilishni taklif qiladi. Invariant deganda, tadqiqotchi, ma'lum lingvomadaniy muhitda shakllanib, xatti-xarakatning o'zga lingvomadaniy variantiga solishtirganda ayrim tafovut va nomuvofiqliklarni keltirib chiqaruvchi insonning xatti-xarakatlari majmuini tushunadi. Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan esa, lakunalarni aniqlash metodi Z.D.Popova va I.A.Sterninlar tomonidan olg'a surilgan [2]. Ushbu metod zahirida semantik yaqin bo'lgan leksik birliklarni chog'ishtirish orqali ushbu birliklarning boshqa tilga muqobil tarjimasi bor yoki yo'qligini aniqlash maqsadi yotadi. Olimlarning fikricha, lakunalar, eng avvalo, ikki tillik lug'atlarda yuzaga chiqadi hamda leksik birlik (so'z, muqim ibora, frazeologik birlik)ning lakunarlik signali sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- ikki tillik lug'atda so'zning batafsil tushuntiruvchi ta'rifning mavjudligi;
- tarjima lug'atida so'zning sinonimik qator bilan tushuntirilishi;
- so'zning badiiy til sarhadlaridan tashqarida (jargon, kasbiy til, dialekt, vulgar leksika) atovining mavjudligi.

Lakunalar o'rtasida tafovut chiziqlarini o'tkazar ekan (buni ma'lum milliy madaniyatda tegishli predmet yoki hodisaning mavjud emasligi (asosli lakunalar) hamda predmet yoki hodisaning yo'qligi bilan bog'liq bo'lmaganligi (tasodifiy lakunalar) orqali izohlash mumkin). I.A. Sternin tegishli konseptning borligi yoki yo'qligi muammosini yuzaga chiqaradi. Tarjima tilida asliyatdagi bir so'z uchun muqobil birlikning mavjud emasligi o'sha xalq ongida konseptning ham yo'qligidan dalolat beradimi? Bizningcha, bu masalada har bir holatga individual yondashgan holda ish tutish kerak.

G.V.Bikova lakunalarni yuzaga chiqarishning quyidagi asosiy metodlarini taklif qiladi:

- tilning leksik birliklarini boshqa tildagi muqobillari bilan qiyoslovchi kontrastiv metod;

- diaxronik tarzda konseptning atalish usullarini qiyoslovchi tarixiy-solishtirma metod;

- chegaralangan qo'llanishga ega bo'lgan leksikani qiyoslash orqali o'zaro tizim osti lakunlarni aniqlashga qaratilgan stilistik-paradigmatik metod;

- so'z yasallishining kompleks birliklari orqali lakunalarni yuzaga chiqaruvchi so'z yasovchi-paradigmatik metod: so'z yasovchi juftliklardagi lakunalar, so'z yasovchi tiplardagi lakunalar, so'z yasovchi kategoriyalardagi lakunalar va hkz.

Lakunalar aniqlangandan so'ng ularni ta'riflash borasida biz I.A.Sternin algoritmgaga amal qilgan holda quyidagi ketma-ketlikdagi xarakatni amalga oshirish lozimligini ta'kidlaymiz:

- Asliyati tili fonida tarjima tilidagi lakuna yuzaga chiqariladi;
- Fon tildagi lisoniy birlik – lakunar birlikning ma'nosi (sema tahlili) aniqlanadi;

- Aniqlangan ma'nodan (ma'noning sema ta'rifi) tadqiq qilinayotgan tildagi lakunaning mazmunini tasvirlash maqsadida foydalaniladi.

Masalan, ushbu algoritmgaga asoslangan holda I.A. Sternin *afterthought* ekvivalentlarsiz birligini misol sifatida keltiradi. Ushbu so'z rus tilida bir so'z hajmidagi ekvivalentga ega bo'lmaganini aytib, u ingliz tili fonidagi rus tilidagi lakuna sifatida qabul qilinadi va rus tiliga "bo'lib o'tgan voqeadan so'ng kechroq esga kelgan fikr-hayol" [3] deb interpretatsiya qilinadi.

Ilmiy adabiyotda lakunalarni eliminatsiya qilish (bartaraf qilish, to'ldirish, kompensatsiya) jarayoni, shuningdek, delakunizatsiya deb ham ataladi va bu atama "retsipiyent tomonidan matn komponentlari va matnda hosil bo'lgan vaziyat komponentlari orasidagi o'zi uchun tushunarsiz bo'lgan matn ichi va matn tashqarisidagi munosabatlar interpretatsiyalash va qaror qabul qilish

jarayoni” sifatida talqin qilinadi. Lakunalarni eliminatsiyalash yoki delakunizatsiyalash jarayonida asosiy masala tarjima tili madaniyatida mavjud bo‘lmagan tushunarsiz unurni tushunishdan iborat bo‘lib qoladi. Shu tariqa, tarjimon o‘z mahorati doirasida, avvalambor, asliyat tilidagi ekvivalentsiz matn unsurini interpretatsiya qiladi, so‘ng uni tarjima tilida berish uchun usul tanlaydi. Tarixiy istiqbolda asliyat tilining ma’lum madaniy tajribasi tarjima tiliga o‘tishi oqibatida, ya’ni lakunaning madaniy interiorizatsiyasi tufayli lakunalar eliminatsiyasi yoki delakunizatsiya jarayoni o‘zlashtirish shaklini olishi mumkin. Madaniy tajribani o‘zlashtirish jarayoni to‘g‘ridan to‘g‘ri jamiyat rivoji bilan bog‘liqdir. Tajribadan ma’lumki, tarixiy barqarorlik davrlarida lisoniy rivojlanish jarayonlari asta-sekin boradi, lisoniy yangilanish mexanizmi sekinroq ishlaydi. Ijtimoiy barqarorsizlik va tarixiy o‘zgarishlar zamonida lisoniy rivojlanish jarayonlari sezilarli ravishda tezlashadi, til o‘zgarishlarining ayqash-uyqashliklari tufayli yangiliklar tegishli til tizimiga moslashishga ulgurmay, hayotning turli jabhalarida ko‘p sonli lakunalar vujudga keladi. Shuningdek, katta miqdordagi lakunalar hosiloti boshqa sabablar tufayli yuzaga kelishi ham mumkin.

Demak, tilda lakunalarning vujudga kelish sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Lakunarlik olam lisoniy va konseptual manzaralaridagi tafovutlar: ma’lum bir lingvomadaniy jamiyat hayotida mavjud predmet yoki hodisaning boshqasida mavjud emasligi; bir jamiyat hayotida predmet yoki hodisaning keng tarqalmagan va natijada u ahamiyatsiz yoki kam ahamiyatga ega bo‘lgan bir vaqtda boshqasida muhimlik kasb etganligi sababli paydo bo‘ladi. Yoki, kuzatilganidek, predmet yoki hodisa jamiyat hayotida mavjud bo‘lib, ma’lum vazifani bajaradi, til egalari fikrlash jarayonida tegishli tushunchalar bilan ishlaydi, lekin predmet yoki hodisaning nominatsiyasi lisoning ongning ushbu tushunchani alohida nomlashga extiyoj sezmaganligi tufayli mavjud bo‘lmasligi mumkin. Ko‘rsatilgan sabablar jamiyatning barcha sohalarida lakunalarning vujudga kelishiga sharoit yaratadi.

Lakunalar muammosi, ayniqsa, soʻz kuchi va taʼsiri birinchi oʻringa qoʻyiladigan badiiy tarjimada dolzarbdir. Oxirgi vaqtlarda oʻzbek tilidagi adabiyotlarning dunyoning boshqa tillariga, shu jumladan, ingliz tiliga koʻplab tarjima qilina boshlaganligining natijasida, tarjimashunoslikda yangi tajriba sifatida maydonga kirib borayotgan oʻzbek tilidagi tushunchalarni ingliz tilida nomlash muammosi dolzarblik kasb eta boshladi. Oʻzbek tili fonida vujudga kelgan ingliz tilidagi lakunalarni bartaraf qilmay turib, maʼlum badiiy asarni toʻla-toʻkis barcha jilosida tarjima qilish va tarjimadagi lingvomadaniy ekvivalentlikka erishish amalga oshirilishi qiyin boʻlgan masalalarga aylanib qolmoqda.

Xulosa

Lakunalarni aniqlashning qator usullari mavjudligiga qaramay, ularni ajratish va tavsiflash masalasi oxirigacha oʻz yechimiga ega boʻlmagan va oʻrganishda davom etishni taqozo etadi. Albatta, tarjimadagi lakunarlik holati oʻziga xos lingvokulturologik tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi, biroq, bu borada doimo tarjimashunoslikdagi dalillangan postulatga tayanib ish tushish lozimligini taʼkidlab oʻtmoqchimiz, yaʼni, tarjima qilib boʻlmaydigan qismlar bor, lekin tarjima qilib boʻlmaydigan matnlarning oʻzi yoʻq. Lakunalar turli etnolingvistik jamiyatlarning oʻzaro muloqotida oʻziga xos toʻsiqni yaratishi mumkin, biroq bu toʻsiqni yengib oʻtsa boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Марковина И.Ю. Элиминирование лакун как действие социально-психологических механизмов «притяжения» и «отталкивания» // Теория лакун в исследовании проблем межкультурного общения. // Вопросы психолингвистики № 3, 2006. Институт языкознания РАН, 2006. – С. 5.
2. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2010. – С. 314.
3. Стернин И.А. Контрастивная лингвистика. Проблемы теории и методики исследования. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. – с. 76-77.
4. Turgunpolatovna, D. N. (2020). The linguocultural analysis of literary translation from Uzbek into English. *Journal of critical reviews*, 7(3), 262-265.

5. Dosbaeva, N. (2019). ABOUT HARMONY OF LINGUISTIC AND CULTURAL APPROACHES IN TRANSLATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(1), 152-156.
6. ДОСБАЕВА, Н. Т., & ДОСБАЕВА, Н. Т. (2020). ТАРЖИМАЛАР ТАҲЛИЛИДА ҚОДИРИЙ “АНДИША” ЛАРИ.
7. Досбаева, Н. Т. (2018). ВОПРОСЫ СОХРАНЕНИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА В ПЕРЕВОДЕ. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 159-161).
8. Досбаева, Н. Т. (2017). TEACHING TO DEVELOP THE READING MICRO SKILLS. *Научное знание современности*, (3), 98-101.
9. Досбаева, Н. Т. (2017). SPECIAL NOTES ON TEACHING VOCABULARY. *Научное знание современности*, (4), 94-97.
10. Досбаева, Н. Т. (2016). Learning the image system. *Молодой ученый*, (3), 812-814.
11. Dosbaeva, N. T. (2019). THE LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF LITERARY TRANSLATION FROM UZBEK INTO ENGLISH (BY THE EXAMPLE OF THE SHORT STORY “THE POMEGRANATE” BY ABDULLA KAHHOR). *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(11), 157-162.
12. Nargiza, D., & Palina, B. (2019). Features of the english translation of Russian-Speaking realities in the texts of fiction novels. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(4), 117-121.